



UDK:37.12

Shuxrat OTAQULOV,
MTTDQTMOI dotsenti, PhD
E-mail: otaqulov@shuhratgmail.com

Renassans ta'lim universiteti professori, s.f.d. T.Alimardonov taqrizi asosida

GENDER TENGLIK SIYOSATIGA AMAL QILISH MEKANIZMLARINI TAKOMILLASHTIRISH

Аннотация

Ushbu maqolada gender tengligini ta'minlashga qaratilgan huquqiy asoslar, davlat siyosatining ustuvor yo'nalishlari, konstitutsiyaviy normalar, maxsus qonunlar va milliy strategiyalar hamda respublikamizning xalqaro majburiyatlari doirasida amalga oshirilayotgan islohotlari orqali gender tengligi masalasiga alohida e'tibor qaratilgan. Shuningdek, davlat organlari, fuqarolik jamiyati institutlari, ta'lim va mehnat tashkilotlarida teng imkoniyatlarni ta'minlashga qaratilgan amaliy mexanizmlar tahlil etiladi.

Kalit so'zlar: Gender tenglik, huquqiy kafolatlar, konstitutsiya, imkoniyatlar tengligi, davlat siyosati, qonunchilik, ijtimoiy adolat.

СОВЕРШЕНСТВОВАНИЕ МЕХАНИЗМОВ РЕАЛИЗАЦИИ ПОЛИТИКИ ГЕНДЕРНОГО РАВЕНСТВА

Аннотация

В статье рассматривается проблема гендерного равенства через призму правовых основ, приоритетов государственной политики, конституционных норм, специальных законов и национальных стратегий, а также реформ, реализуемых нашей республикой в рамках её международных обязательств. Анализируются практические механизмы, направленные на обеспечение равных возможностей в государственных органах, институтах гражданского общества, образовательных и трудовых организациях.

Ключевые слова: Гендерное равенство, правовые гарантии, конституция, равные возможности, государственная политика, законодательство, социальная справедливость.

IMPROVING MECHANISMS FOR IMPLEMENTING GENDER EQUALITY POLICY

Annotation

This article examines the issue of gender equality through the lens of legal frameworks, public policy priorities, constitutional norms, special laws, and national strategies, as well as reforms implemented by our republic within the framework of its international obligations. It analyzes practical mechanisms aimed at ensuring equal opportunities in government agencies, civil society institutions, and educational and labor organizations.

Key words: Gender equality, legal guarantees, constitution, equal opportunities, public policy, legislation, social justice.

Kirish. So'nggi yillarda O'zbekistonda amalga oshirilayotgan keng ko'lamli islohotlar jarayonida inson huquqlari, ijtimoiy adolat va demokratiya tamoyillarini mustahkamlashga alohida e'tibor qaratilmoqda. Ushbu islohotlar jarayonida gender tenglik masalasi mamlakat ijtimoiy-siyosiy hayotida dolzarb ahamiyat kasb etmoqda. Ayniqsa, xotin-qizlar va erkaklar o'rtasida teng huquq va imkoniyatlarni ta'minlash, ularning siyosiy, iqtisodiy va ijtimoiy sohalarida teng ishtirokini rag'batlantirish davlat siyosatining muhim ustuvor yo'nalishlaridan biri sifatida namoyon bo'lmoqda. Shu maqsadda mamlakatda qator qonunchilik hujjatlari qabul qilindi, institutsional mexanizmlar joriy etildi hamda fuqarolik jamiyati institutlari bilan hamkorlikda turli tashabbuslar amalga oshirilmoqda. Jumladan, xotin-qizlarning rahbarlik lavozimlaridagi ulushini oshirish, ularning tadbirkorlik va mehnat bozoridagi ishtirokiga keng yo'l ochish, ta'lim va sog'liqni saqlash sohalarida teng imkoniyatlar yaratish yo'lida sezilarli ishlar amalga oshirilmoqda.

Shu bilan birga, amaliyotda ushbu sohadagi ishlar natijadorligini to'liq ta'minlash, huquqiy va institutsional mexanizmlarni yanada takomillashtirish, ayniqsa, joylarda gender siyosatini hayotga tatbiq etishdagi muammolarni bartaraf etishga qaratilgan sa'y-harakatlarni kuchaytirish zarur. Chunki rasmiy siyosiy bayonot va qonunlarda belgilangan

normalarning hayotda to'laonli tatbiq etilishiga erishish, faqatgina normativ-huquqiy hujjatlarni qabul qilish emas, balki ularni amalga oshirish mexanizmlarining samaradorligi bilan chambarchas bog'liqdir. Shu nuqtai nazardan, gender tenglikni ta'minlash sohasida amalga oshirilayotgan islohotlarning samaradorligini oshirish, mavjud muammolarni chuqur tahlil qilish va ularni bartaraf etish bo'yicha aniq va ta'sirchan mexanizmlarni ishlab chiqish bugungi kunning dolzarb vazifalaridan biri hisoblanadi.

Mavzuga oid adabiyotlar tahlili. O'zbekiston Respublikasining Konstitutsiyasida ayollar va erkaklar teng huquq va erkinliklarga ega ekanligi alohida belgilangan bo'lib, bu norma mamlakatda gender tengligi tamoyillarini ta'minlashga qaratilgan muhim huquqiy kafolat hisoblanadi. Xususan, Konstitutsiyaning 58-moddasida xotin-qizlar va erkaklar huquqlari tengligi mustahkamlab qo'yilgan.[1] Shu bilan birga, 2019 yilda qabul qilingan "Xotin-qizlar va erkaklar uchun teng huquq hamda imkoniyatlar kafolatlari to'g'risida"gi Qonun O'zbekistonda gender tengligini ta'minlashga qaratilgan davlat siyosatining huquqiy asosini yaratadi. Ushbu qonun gender asosida kamsitishning har qanday shakllarini ta'qiqlaydi, ayollar va erkaklar o'rtasidagi teng huquq va imkoniyatlarni amalga oshirishning institutsional mexanizmlarini belgilaydi, shuningdek, davlat organlari,

fuqarolik jamiyati institutlari va ish beruvchilarning bu sohada majburiyatlarini aniqlashtirib beradi.

Mazkur normativ-huquqiy baza mamlakatda ijtimoiy adolat, barqaror rivojlanish va inklyuziv jamiyat barpo etishning asosiy shartlaridan biri sifatida gender tenglikni ta'minlashda muhim rol o'ynaydi. Mazkur Qonunning qabul qilinishi O'zbekistonning xalqaro majburiyatlari, xususan, BMTning "Ayollarga nisbatan kamsitishning barcha shakllarini tugatish to'g'risida"gi Konvensiya (CEDAW) va boshqa xalqaro norma hamda standartlarga mos keladi.

Qonunda gender tenglik – ayollar va erkaklarning barcha sohalaridagi huquq va imkoniyatlardan teng foydalanishi, jamiyat va davlat taraqqiyotida faol ishtirok etishi kafolatlanishi lozim bo'lgan prinsip sifatida belgilangan. Unga ko'ra, davlat organlari, mahalliy hokimiyatlar, nodavlat notijorat tashkilotlari, ta'lim muassasalari va ish beruvchilar gender tengligini ta'minlash borasida aniq majburiyatlarga ega.[2] Xususan, ishga qabul qilish, mehnat sharoitlari yaratish, rahbarlik lavozimlariga tayinlash, ta'lim va sog'liqni saqlash sohalarida gender disbalansning oldini olish bo'yicha mexanizmlar ishlab chiqilgan. Shuningdek, mazkur qonunning 6-moddasida gender tenglikni ta'minlash sohasida davlat siyosati yo'nalishlari aniq ko'rsatib o'tilgan bo'lib, ular qatorida gender ekspertizasi tizimini joriy etish, xotin-qizlarni qaror qabul qilish jarayonlarida ishtirokini oshirish, zo'ravonlikka qarshi kurashish, shu jumladan, oilaviy zo'ravonlikni oldini olish kabi vazifalar mavjud.

Ushbu qonunga muvofiq:

davlat organlari va tashkilotlari gender tenglikni ta'minlash bo'yicha ma'lum majburiyatlarga ega;

barcha sohada gender ekspertizasi va monitoring tizimlari joriy etilmoqda;

institutsional tarmoq – masalan, Oila va xotin-qizlar davlat qo'mitasi tashkil etilgan.

Shunga qaramay garchi mavjud qonunchilikda muayyan yutuqlarga erishilgan bo'lsa-da, quyidagi muammolar mavjud:

Qonun mavjud bo'lsa-da, uning amaliyotda bajarilishida nazorat va hisobot mexanizmlarini yanada kuchaytirish zarur.

Gender ekspertizasining yetarli darajada amalga oshirilmasligi. Qabul qilinayotgan barcha normativ-huquqiy hujjatlar gender nuqtai nazaridan baholanishi yanada takomillashtirish zarur.

Ko'pincha, qonun loyihalarini ishlab chiqish va qabul qilish jarayonida gender tengligiga ta'sir etishi mumkin bo'lgan omillar yetarlicha inobatga olinmaydi. Gender ekspertizasi amalga oshirish uchun mas'ul tuzilmalar va mutaxassislar soni kam, mavjud mexanizmlar esa samarali ishlamayapti. Normativ-huquqiy hujjatlarining ko'pchiligi "barcha uchun bir xil qoidalar" tamoyili asosida ishlab chiqiladi. Bu esa, aslida, turli ijtimoiy guruhlar, xususan ayollar va erkaklar uchun turlicha ta'sir ko'rsatishi mumkinligini inkor qiladi. Masalan, mehnat to'g'risidagi qonunlar yoki ijtimoiy muhofaza sohasidagi siyosatlar ayrim hollarda ayollarning imkoniyatlarini cheklashi yoki ularning ehtiyojlarini hisobga olmasligi mumkin. Ayrim hollarda normativ-huquqiy hujjatlar nisbatan gender ekspertizasi o'tkazilayotgan bo'lsa-da, bu jarayon ko'proq formal xarakterga ega bo'ladi. YA'ni, haqiqiy tahlil va ta'sirni baholash o'rniga, oddiy xulosalar bilan cheklaniladi. Bu esa real muammolarni ko'rmay qolishga olib keladi. Gender ekspertizasi jarayoniga fuqarolik jamiyati institutlari, ayollar tashkilotlari va mutaxassislarning jalb etilishi yetarli emas. Bu esa qarorlar qabul qilishda xolis va inklyuziv yondashuvni ta'minlash imkonini cheklaydi. Gender nuqtai nazaridan tahlil qilish uchun zarur bo'lgan genderga ajratilgan statistik ma'lumotlar doim ham mavjud emas yoki

ishonchli emas. Bu esa, hujjatlarining ayollar va erkaklarga qanday ta'sir etishini aniq baholash imkoniyatini kamaytiradi. Gender ekspertizasining yetarli darajada amalga oshirilmasligi qonunchilikda ayollar va erkaklar huquqlarining tengligini ta'minlashga to'sqinlik qiladi. Bu, o'z navbatida, ayollarning siyosiy, iqtisodiy va ijtimoiy sohalaridagi imkoniyatlarini cheklab qo'yadi. Shuning uchun, normativ-huquqiy hujjatlarini qabul qilish jarayonida samarali va chuqur gender tahlilini yo'lga qo'yish, bu borada mas'ul mutaxassislarni tayyorlash, va fuqarolik jamiyati bilan hamkorlikni kuchaytirish juda muhimdir.

Tahlil va natijalar. Mahalliy darajadagi institutsional qo'llab-quvvatlashning yetarli darajada bo'lmasligi – bu jamiyatda xotin-qizlarning huquqlarini himoya qilish, ularning ijtimoiy-iqtisodiy va madaniy hayotdagi ishtiroki uchun zarur bo'lgan tizimli va barqaror yordam yetarli bo'lmasligiga olib kelishi mumkin. Bugungi kunda barcha viloyat va tumanlarda xotin-qizlar bilan ishlash bo'yicha maxsus bo'linmalar tashkil etilgan bo'lsa-da, ularning salohiyati va imkoniyatlari turli sabablarga ko'ra cheklangan holatda qolmoqda. Bu holatning asosiy sabablari quyidagilardan iborat:

Viloyat va tuman darajasidagi bo'linmalarda mutaxassislar yetarli darajada tayyorlanmagan yoki sohaga jalb qilingan kadrlar yetishmasligi sezilmoqda. Bu esa xotin-qizlarning muammolarini aniqlash, tegishli chora-tadbirlar ishlab chiqish va amalga oshirishni qiyinlashtiradi.

Mahalliy darajadagi institutsional tarmoqlarda xotin-qizlar muammolari va ularning yechimlari haqidagi ma'lumotlar tizimli ravishda shakllantirilishi va tahlil qilinishi yetarli darajada emas. Shu sababli, ishlab chiqilayotgan strategiyalar va dasturlar real vaziyatga to'liq mos kelmasligi mumkin.

Xotin-qizlar bilan ishlash sohasida mahalliy tashkilotlar, nodavlat sektor va davlat idoralari o'rtasida hamkorlikning sustligi yoki unchalik samarali bo'lmasligi, resurslar va imkoniyatlarning samarali taqsimlanmasligiga olib keladi.

Mahalliy jamiyatdagi an'anaviy qarashlar, gender tengsizlik va ustuvor stereotiplar xotin-qizlarning ijtimoiy faolligini cheklaydi. Bu holat institutsional qo'llab-quvvatlashni kuchaytirishni qiyinlashtiradi, chunki hamkorlik va jamoatchilik fikrini o'zgartirish uchun keng ko'lami ma'rifiy ishlar amalga oshirilishi zarur.

Shu bilan birga, viloyat va tuman darajasida xotin-qizlar bilan ishlash bo'yicha bo'linmalarning salohiyati cheklanganligi mahalliy muammolarni samarali hal qilishga to'sqinlik qiladi. Bunday cheklovlar institutsional faoliyatning to'liq ko'lamida amalga oshirilishi kerak bo'lgan dasturlarning qisqarishiga, ularning joylarda ijobiy o'zgarishlarni ta'minlashda sustlikka uchrashiga sabab bo'ladi. Natijada, xotin-qizlarning huquqlarini himoya qilish, ularning ijtimoiy imkoniyatlarini kengaytirish va gender tengligini ta'minlash borasida ko'zlangan maqsadlarga erishishda mahalliy darajada katta qiyinchiliklar yuzaga keladi.

Jamiyatdagi stereotiplar gender roliga oid an'anaviy qarashlar ayollarning siyosiy va iqtisodiy faolligini cheklaydi.

Dunyo tajribasi shuni ko'rsatadiki, gender tenglikni ta'minlash uchun samarali institutlar, aniq indikatorlar va ma'lumotlarga asoslangan qaror qabul qilish muhim ahamiyatga ega. [3]Masalan:

Shvesiyada har bir davlat siyosati gender ta'sir baholashidan o'tadi.

Kanadada "Gender-Based Analysis Plus" (GBA+) metodi orqali har bir dasturda ayollar va erkaklar manfaati tahlil qilinadi.

Ruandada gender tenglik siyosatiga amal qilish uchun maxsus budjetlashtirish (gender budgeting) amaliyoti yo‘lga qo‘yilgan.

Bu tajribalar O‘zbekiston uchun quyidagi takliflar ishlab chiqishga asos bo‘ladi.

Aniq va ishonchli gender indikatorlari asosida qarorlar qabul qilish tizimini joriy etish.

Gender tenglikni ta‘minlashga qaratilgan huquqiy va institutsional bazaning mavjudligi muhim qadam bo‘lsa-da, uning hayotda to‘liq amalga oshishi uchun quyidagi yo‘nalishlarda ishlarni kuchaytirish zarur:

Mustahkam monitoring va hisobot tizimini yaratish, jumladan mustaqil tashkilotlar orqali baholash mexanizmini joriy etish;

Davlat xizmatchilari uchun maxsus o‘quv dasturlarini joriy etish orqali gender masalalari bo‘yicha bilim va ko‘nikmalarni oshirish;

Gender ekspertizasi metodologiyasini yaratish va targ‘ib qilish;

Jamoatchilikni xabardor qilish va huquqiy madaniyatni oshirish, jumladan ommaviy axborot vositalari va ta‘lim tizimi orqali.

Gender tenglik indikatorlarini ishlab chiqish va statistika bazasini mustahkamlash. Haqqoniy ma‘lumotlar orqali siyosiy qarorlarning ta‘siri baholanadi.

Barcha davlat dasturlariga gender ekspertizasi majburiy tarzda joriy etish.

Bu uchun mustaqil ekspertlar guruhini tashkil etish zarur.

Hududiy darajada gender siyosatini amalga oshirish bo‘yicha resurs markazlarini tashkil etish.

Gender tenglik masalasida jamoatchilik nazoratini kuchaytirish.

Nodavlat tashkilotlar, fuqarolik jamiyati institutlari keng jalb qilinishi lozim.

Ma‘rifat va ta‘lim orqali jamiyatdagi stereotiplarni yumshatish.

Fuqarolik jamiyati institutlarining rolini kuchaytirish orqali jamoatchilik nazoratini ta‘minlash. Maktab va OTMlarda

gender tenglik mavzusini qamrab olgan fanlar joriy etilishi mumkin.

O‘zbekistonda so‘nggi yillarda gender tenglikni ta‘minlash borasida qator huquqiy va institutsional chora-tadbirlar amalga oshirildi. Qonunchilik bazasi yangilandi, ayol va erkaklarning teng huquqlari va imkoniyatlarini kafolatlaydigan qonunlar qabul qilindi, shuningdek, turli davlat va jamoat tashkilotlari faoliyat yuritmoqda. Bu sa‘y-harakatlar jamiyatda gender muammolarini yechishda muhim poydevor bo‘lib xizmat qilmoqda.

Shu bilan birga, ushbu sohada amaliy mexanizmlarni yanada takomillashtirish zarurati saqlanib qolmoqda. Jumladan, huquqiy normalarning hayotga to‘liq tatbiq etilishi, mahalliy darajada siyosatning ijrosi, aholining xabardorligini oshirish, gender stereotiplarini yo‘q qilish va ayollarning iqtisodiy, siyosiy hamda ijtimoiy faolligini kuchaytirish ustuvor vazifalardan sanaladi.[4]

Xulosa va takliflar. Jahon tajribasi shundan dalolat beradiki, gender tenglikka erishish faqat huquqiy baza yaratish bilan cheklanib qolmasligi kerak. Bu jarayonda institutsional islohotlar, ta‘lim va tarbiya tizimida gender hassoslikni oshirish, ommaviy axborot vositalari orqali ma‘rifiy ishlar olib borish, shuningdek, erkaklar va ayollar o‘rtasidagi hamkorlikni mustahkamlash muhim ahamiyatga ega.

Milliy an‘analar va qadriyatlarni hisobga olgan holda, o‘zbek jamiyatida gender tenglikni targ‘ib etish orqali ayollarning nafaqat oilada, balki iqtisodiyot, davlat boshqaruvi, tadbirkorlik va fan-ta‘lim sohalarida ham faol ishtirokini ta‘minlash mumkin. Bu esa o‘z navbatida nafaqat ayollarning, balki butun jamiyatning barqaror rivojlanishi, ijtimoiy adolatni qaror toptirish va iqtisodiy salohiyatni yuksaltirishga xizmat qiladi.

Xulosa qilib aytganda, O‘zbekistonda gender tenglikni ta‘minlash bo‘yicha mavjud huquqiy va institutsional asoslar – muhim dastlabki qadamlardir. Endi esa bu jarayonni yanada chuqurlashtirish, amaliy mexanizmlarni takomillashtirish va jamiyatda ong va tafakkurni o‘zgartirish orqali barqaror va samarali gender siyosatini shakllantirish lozim. Bu esa kelajakda yanada adolatli, inklyuziv va farovon jamiyat sari mustahkam qadam bo‘ladi.

ADABIYOTLAR

1. O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi. – Toshkent, 2023.
2. O‘zbekiston Respublikasining “Xotin-qizlar va erkaklar uchun teng huquq hamda imkoniyatlar kafolatlari to‘g‘risida”gi Qonuni. 2019 yil.
3. UN Women. Gender Equality and Women’s Empowerment in Uzbekistan. – UNDP Report, 2022.
4. O‘zbekiston Respublikasining “Xotin-qizlar va erkaklar uchun teng huquq hamda imkoniyatlar kafolatlari to‘g‘risida”gi Qonuni. 2019 yil.